

MAJBURIYATNOMA

konsalting ko‘rsatilishi uchun

Ushbu orqali, 14.03.2024 yilgi PQ-126-son “Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini ijrosi bo‘yicha, tadbirkorlik sub‘ektlari uchun biznes-reja ishlab chiqish va ularga tayyor biznes loyihalarini taklif etish, biznesni yuritish va korporativ boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam beradigan loyiha ofislari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda, “O‘zbekekspertiza” AJning bo‘linmalari huzurida faoliyat yuritayotgan loyiha ofislariga (keyingi o‘rinlarda – loyiha ofislari) taqdim etilayotgan ma‘lumotlar (axborot) 02.07.2019 yilgi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunidagi, 11.09.2014 yilgi O‘RQ-374-son “Tijorat siri to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunidagi, 25.05.2000 yilgi 69-II-son “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunidagi (Yangi tahrir) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi, konfidensial ma‘lumotlardan (axborotdan) foydalanishiga qo‘yiladigan tartibga va ular (u) ishonchliligi, talablarga muvofiqligini tasdiqlayman.

Shu bois, loyiha ofislariga taqdim etilayotgan ma‘lumotlar (axborot) faqat tadbirkorlik sub‘ektlariga beg‘araz asosida konsalting ko‘rsatilishi uchun foydalanishi tufayli, kelgusida tadbirkorlik sub‘ektlari biznes-loyihalarni amalga oshira olmaslik imkonsizligi, amaldagi qonunchilikga binoan loyiha ofislarini har qanday javobgarligiga asos bo‘lmaydi. Vaholanki, 25.05.2000 yilgi 69-II-son “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (Yangi tahrir) 3 moddasiga ko‘ra – Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub‘ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, **tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi** ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.